

Abdulla Oripov ijodi misolida antroponim sarlavhalarining semantik tasnifi

Muxtarova Zarnigor Javoxirbek qizi
zarnigormuxtarova7@gmail.com
Doktorant,
Andijon davlat universiteti

Annotatsiya *Sarlavha badiiy asar tahlilida muhim elementlardan biri hisoblanadi. U badiiy matn uchun ochqich vazifasini bajaradi. Sarlavhaga olingan so'zning ma'nosidan kelib chiqib kitobxon badiiy matn haqida ilk tasavvurga ega bo'ladi. Tadqiqot maqsadi Abdulla Oripov she'rlariga qo'yilgan sarlavhalar misolida antroponim sarlavha va uning semantik tasnifini, badiiy matn bilan aloqadorligini o'ragnish. Tadqiqot metodlari lingvostilistik, poetik, semantik tahlilga tayanib ish olib borildi. Tadqiqot natijalari: Abdulla Oripov ijodida qo'llangan shaxs nomini bildiruvchi sarlavhalar mazmunan mifologik antroponim sarlavha, mifopoetik antroponim sarlavha, diniy-tarixiy antroponim sarlavha, adabiy antroponim sarlavha, allyuziv antroponim, tarixiy antroponim sarlavhalarga ajratib tasnif qilindi. Xulosa qilib aytganda, antroponim sarlavhalarni shoir ijodi misolida o'rganish shoirning onomastik birliklardan foydalanish mahoratini ko'rsatib beradi. Shuningdek, ijodkorning antroponimlardan tarixiy va milliy o'zlikni anglash, diniy dunyoqarashni ifoda etish, badiiy matndagi obrazni ta'kidlash kabi maqsadlarda foydalanganini asar mazmuni bilan birgalikda tahlil qilshda yordam beradi.*

Kalit so'zlar *Sarlavha, antroponim sarlavha, mifologik antroponim sarlavha, mifopoetik antroponim sarlavha, diniy-tarixiy antroponim sarlavha, adabiy antroponim sarlavha, allyuziv antroponim, tarixiy antroponim*

Семантическая классификация антропонимических названий на примере работы Абдуллы Орипова

Мухтарова Зарнигор Джавахирбек кызы
zarnigormuxtarova7@gmail.com
Докторант,
Андижанский государственный
университет

Аннотация *Заголовок является одним из важных элементов анализа произведения искусства. Он выступает ключом к литературному тексту. Исходя из значения слова, взятого в заголовке, читатель получает первоначальное представление о литературном тексте. Цель исследования – изучение антропонимического заголовка и его семантической классификации, а также его связи с литературным текстом на примере заголовков стихотворений Абдуллы Орипова. Методы исследования основаны на лингвистическом, поэтическом и семантическом анализе. Результаты исследования: Заголовки, обозначающие имя человека, используемые в творчестве Абдуллы Орипова, были классифицированы по содержанию на мифологические антропонимические заголовки, мифопоэтические антропонимические заголовки, религиозно-исторические антропонимические заголовки, литературные антропонимические заголовки, аллюзивные антропонимические заголовки и исторические антропонимические заголовки. В заключение, изучение антропонимических*

заголовков на примере произведения поэта демонстрирует мастерство поэта в использовании ономастических единиц. Это также помогает анализировать использование автором антропонимов в таких целях, как понимание исторической и национальной идентичности, выражение религиозного мировоззрения и акцентирование образа в литературном тексте, наряду с содержанием произведения.

Ключевые слова *Название, антропонимическое название, мифологическое антропонимическое название, мифопоэтическое антропонимическое название, религиозно-историческое антропонимическое название, литературное антропонимическое название, аллюзивное антропонимическое название, историческое антропонимическое название*

Semantic classification of anthroponymic titles on the example of Abdulla Oripov's work

Mukhtarova Zarnigor Javakhirbek qizi
zarnigormuxtarova7@gmail.com
Doctoral student,
Andijan State University

Annotation *The title is one of the important elements in the analysis of a work of art. It acts as a key to the literary text. Based on the meaning of the word taken in the title, the reader gets an initial idea of the literary text. The purpose of the research is to study the anthroponymic title and its semantic classification, as well as its relationship with the literary text, using the example of the titles given to the poems of Abdulla Oripov. The research methods were based on linguistylistic, poetic, semantic analysis. Research results: The titles denoting the name of a person used in the work of Abdulla Oripov were classified according to their content into mythological anthroponymic title, mythopoetic anthroponymic title, religious-historical anthroponymic title, literary anthroponymic title, allusive anthroponymic, and historical anthroponymic titles. In conclusion, the study of anthroponymic titles in the example of the poet's work shows the poet's skill in using onomastic units. It also helps to analyze the author's use of anthroponyms for purposes such as understanding historical and national identity, expressing religious worldview, and emphasizing the image in the literary text, together with the content of the work.*

Keywords *Title, anthroponymic title, mythological anthroponymic title, mythopoetic anthroponymic title, religious-historical anthroponymic title, literary anthroponymic title, allusive anthroponymic, historical anthroponymic*

Kirish

Tilshunoslikda onomastika nomlarni o'rganuvchi maxsus bo'lim hisoblanib, antroponimlar shu bo'lim tarkibida o'rganiladi. Antroponimlarga ismlar, familiyalar, otasining ismlari, laqab, taxalluslar kiradi. Ijodkorlar o'z

badiiy maqsadidan kelib chiqib antroponimlardan asarlari uchun sarlavha sifatida foydalanishi mumkin. Bunday holda, muallif uchun bu qahramonni boshqalardan ajratib ko'rsatish, uning eksklyuzivligini ko'rsatish muhimdir. Badiiy asar sarlavhasi

badiiy matndagi yetakchi mazmuni ifoda etish uchun xizmat qiladi. **Tadqiqotda aniqlangan muammo** o'zbek tilshunosligida Abdulla Oripov she'rlariga qo'yilgan antroponim sarlavhalarning semantik tahlili o'rganilmagan. Tadqiqot maqsadi maqolada biz shoir ijodida qo'llanilgan antroponim sarlavhalarni semantik jihatdan turlarga ajratib tahlil qilish va bu orqali shoir ifoda etmoqchi bo'lgan fikrlarni aniqlashni maqsad qildik. **Tadqiqot vazifalari** shoir she'riyatidagi antroponim sarlavhalarni aniqlash, semantik tasnif qilish, shunga ko'ra antroponim sarlavha turlarini yaratish, shaxs nomlari va badiiy matn aloqadorligini o'rganish.

Adabiyotlar tahlili va Metodlar

Xalqaro tilshunoslikda O. Bogdanova ingliz nasrida sarlavhalarning qo'llanilishini o'rganib chiqqan. Unda antroponim sarlavhalarga ham e'tibor qaratgan. Asarlarga ayollar ismining berilishida ko'proq mualliflar jozibador ismlardangani va familiya ko'rsatilmaganini e'tirof etadi. Bunga sabab qilib asarlarning to'y bilan tugashi, qizlarning esa familiyalari o'zgarishini aytadi. Charlotta Bronte qalamiga mansub "Jeyn Eyr" romanida esa Eyr familiyasini sarlavhada berilishiga bosh qahramonning mustaqilligi, alohidaligini ta'kidlash badiiy maqsad bo'lgan. Muallif asar qahramonining ismi asar g'oyasini yetarlicha ochib bermaydi deb hisoblasa unga qo'shimcha izoh kiritgan. S.Richardsonning "Klarissa yoki yosh xonimning tarixi" asarini bunga misol qilib keltiradi (Bogdanova, 2009). O'zbek tilshunosligida S.Nasimova ilmiy maqolasida (Nasimova, 2023) antroponim sarlavhalar haqida to'xtalib, "antroponimlar bilan ifodalangan badiiy asarlar nomida mazmunijihatdan tarixiy shaxslar yoki mifologik qahramonlar nomlari bilan, qarindoshchilik nomlari bilan bog'lanib kelgan ismlar orqali, ifodalaniishi mumkin. Struktur jihatdan esa ular bitta ism, ism+ism, ism bilan hosil bo'lgan tobe bog'lanish, gap qolipidagi bog'lanish va hokazolarga bo'linadi" deydi. M.Bozorova "Umumta'lim maktablarida diniy allyuziyalarni o'qitishning ilmiy-metodik

asoslari" maqolasida allyuziv antroponimlarga izoh berib, misollar keltirgan, ularni maktab darsliklarida o'qitish metodikasi haqida to'xtalgan.

Tadqiqot ishini olib borishda struktur-semantik tahlil, konnotativ tahlil, assotsiativ tahlil, kontekstual **tahlil metodlaridan foydalanildi**.

Natijalar va Muhokama

Antroponim sarlavhalarni A.Oripov ijodi misolida quyidagicha tasnif qildik. Tasniflash jarayonida ularning anglatayotgan ma'nolariga e'tibor qaratdik.

Tarixiy antroponim sarlavha tarixda yashab o'tgan real shaxs nomi asosida yaratilgan bo'lib, u tarixiy shaxni, davr yoki voqea bilan bog'liq ramziy ma'nolarni o'zida ifoda etadi: "Pushkin" (haqiqiy shoirlar insonlar qalbida barhayot yashashi), "Navoiy" (Navoiy ijodining manguqlik va abadiyatga daxldorligi), "Temur" (mustaqillikdan so'ng nim oqlangan ulug' ajdodimizga hurmat), "Napoleon" (soxta buyuklik da'vosini kinoyaviy ifodasi), "Abdulla Qahhor" (ijodkorning teran fikrlashi e'tirofi), "Mo'min Mirzo" (begunohlik va zulm ziddiyati). "Mo'min mirzo" she'ri Husayn Boyqaroning sevimli o'g'li Badiuzzamon Mirzodan tug'ilgan nabirasining ayanchli taqdiri haqida. 1497-yil asir olinib, Husayn Boyqaro farmoni bilan qatl etilgan. Bu fojiga taxt uchun kurash va siyosiy nizolar sabab bo'lgan. Shoir esa she'rda hozir ham o'z manfaati uchun har narsaga tayyor "qotillar" borligi, Mo'min mirzodek jabrdiyda yoshlar ham uchrashini ta'kidlaydi. O'shanday johil insonlarga nisbatan o'z nafratini shoir ushbu she'rda aks ettiradi. Tarixiy shaxs obrazi orqali zulm qurboni bo'lgan barcha begunoh, pok qalbli yoshlar nazarda tutiladi. Sarlavhaga olingan tarixiy antroponim tarixda yuz bergan fojia, begunohlik va zolimlik o'rtasidagi ziddiyatni ifodalab kelgan.

Allyuziv antroponim sarlavha – badiiy matn sarlavhasida diniy manbalarda tilga olingan, badiiy adabiyotda ramziy va mifologik obraz hisoblangan shaxs nomining tilga olinishidir. Allyuziya diniy, mifologik, adabiy va

tarixiy matnda eng ko'p foydalaniladigan intertekstual vosita hisoblanadi. U stilistik vositalardan biri bo'lib, mashhur adabiy, diniy, tarixiy, mifologik fakt, voqea-hodisa, shaxs va joy nomining boshqa yozma yoki og'zaki nutq jarayonida keltirilishidir (Баженова, 2006). Allyuziv antroponim sarlavha orqali ijodkor ma'lum bir diniy manbadagi shaxs yoki qahramonga ishora qiladi. M.Bozorova o'z maqolasida badiiy matnda allyuziv antroponimlarni qo'llashdan maqsadni quyidagicha izohlaydi: "Yozuvchining bundan ko'zlangan asosiy maqsadi kitobxonda avvaldan mavjud bo'lgan diniy bilimlarni faollashtirish va bu orqali kitobxon ko'z o'ngida bir tomondan diniy qahramon, ikkinchi tomondan esa asar qahramonlarining xarakteri, ruhiy holati va tashqi ko'rinishini gavdalantirish hamda bu orqali asar personaji hamda diniy qahramon orasidagi bog'liqliklarga ishora qilishdan iboratdir" (Bozorova, 2025; 132).

"Xizr" (Oripov, Quyosh bekati, 2010) she'rida sarlavhaga olingan allyuziv antroponim Xizr, Hazrati Xizr, Xizr buva kabi nomlar bilan tilga olingan, islom rivoyatlaridagi shaxs, taqvodor inson. Xizr Qur'onda tilga olinmagan, lekin ulamolar Qur'onda "Allohning quli" nomi bilan tilga olingan shaxsni Xizr deb talqin qiladilar (Tilakova, 2021). Ibn Hajar Asqaloniy Raboh ibn Ubayda rahmatullohi alayhdan quyidagi rivoyatni naql qilgan: "Umar ibn Abdulazizning qo'liga suyanib u bilan birga kelayotgan kishini ko'rdim. O'zimcha: "Bu odam (birovga suyanib oladigan) shafqatsiz kishi ekan", – dedim. Umar ibn Abdulaziz namoz o'qib bo'lgach undan: "Ey Abu Hafs, boya sizning qo'lingizga suyanib kelgan kishi kim edi?", – dedim. U: "Sen u kishini ko'rdingmi?", – dedi. Men: "Ha", – dedim. U: "Sen solih kishi ekansan, u birodarim Xizr edi. U menga kelajakda rahbar bo'lishim va adolat qilishim haqida xushxabar berdi", – dedi. Bu rivoyatdan shuni xulosa qilish mumkinki, Xizr adolatli, haqiqatni barcha narasadan ustun qo'yadigan vijdonli insonlarga homiylik qiladi. Umar ibn Abdulaziz o'tmishda o'z xalifaligi davrida adolat va tenglikning keng yoyilishiga sabab bo'lgan.

Samo peshtoqidan Xizr payg'ambar
Zaminga quvonib tashladi nazar
Buning sababini so'rashsa dedi:
Meni qabul qildi yerda bir rahbar.

Xizrning quvonishi – yer yuzida adolat, haqiqatni tan oladigan vijdonli rahbar borligini anglatadi. Ramziy ma'noda Xizr haqiqat va adolat timsoli. Rahbar bu yerda shaxs nomi emas, ijtimoiy mavqe bildiruvchi umumlashma so'z. Zaminga tashlangan quvonchli nazar esa umid ramzi. She'rning Xizr deb atalishi badiiy-ramziy yechim hisoblanib, rahbarlarda bo'lishi kerak bo'lgan mas'uliyatga axloqiy va ilohiy o'lchovlar asosida baho beriladi.

Diniy-tarixiy antroponim sarlavhalar

bu sarlavha shaxs nomi asosida yaratilib, unda bir vaqtning o'zida diniy va tarixiy ma'nolar aks etadi: "Bilol habash", "Oyisha". "Bilol habash" she'ri islom tarixidagi buyuk shaxs – Bilol ibn Raboh (r.a) obraziga atalgan. She'rda ushbu qahramon sadoqat va vafo timsoli bo'lib keladi ("Sidq ila vafoga bo'ldi u timsol"). She'r sarlavhasi she'rdagi asosiy obrazni nomlab, matndagi fikrlarning barchasini bir nuqtaga jamlagan. Tana rangi ("qora habash") va qalb pokligi ("oq dilida iymon ohangi") o'rtasidagi ramziy qarama-qarshilikni shoir diniy-tarixiy antroponim misolida ko'rsatib bergan.

Adabiy antroponim sarlavhalar

– bunda sarlavha ijodkor tomonidan yaratilmaydi, sarlavhaga olingan shaxs boshqa bir ijodkor tomonidan yaratilgan asar qahramoni hisoblanadi. Ushbu qahramon jahon adabiyoti va madaniyatida o'zgarmas semantik modelga aylangan bo'ladi. Bunday sarlavhalar intertekstual ma'no hosil qiladi. "Otello" (Oripov, 2019; 53) she'rida Shekspirning shu nomdagi tragediyasi bosh qahramoni sarlavhaga olingan. Bu qahramon o'zida "rashk", "ishonchsizlik", "fojia", "nafrat" semalarini ifoda etadi. A.Oripov she'rda "rashk" va razillarga nisbatan "nafrat" semasini faollashtiradi:

"Istardim sendagi rashkni ham illo,
Bulubulga dard qayda gul yo'qsa agar".
... "Sendagi naftratni xohlardim asti,
Razillar ko'ziga boqolsam xunxor.

Chunki haligacha, Otello, rosti,
Yagona o'qitib qo'yguvchilar bor".

She'rda ijodkor Otelloga nisbatan ritorik murojaat qiladi, klassik g'arb adabiyotidagi obrazni milliy va umuminsoniy ruhda qayta kashf qiladi. Sarlavhaosti izohida she'r aktyor Abror Hidoyatov (Otello rolini ijro etgan) xotirasiga bag'ishlanganini aytiladi. Buning izohini she'r yakunida izohlaydi:

"Rolingni o'ynasa rashk qilib, mana,
Qabrga tiqibsan buyuk aktyorni".

"Gulliver" (Oripov, 2019; 409) she'rida ijodkor ingliz yozuvchisi J.Sviftning "Gulliverning sayohatlari" asariga ishora qiladi. Shoir bu obrazdan ramziy timsol sifatida foydalanadi. She'r mavzusi nisbiylik, inson qadri, buyuklik va kichiklikning jamiyatga aloqadorligi haqida. Ijodkor bu dunyoda kishining asl qiymati uni kim baholayotganiga qarab o'zgarishini ulkanlar va mitti odamchalar orqali asoslab beradi. She'r bir-biriga zid bo'lgan semantik maydonlar asosiga qurilgan(mitti-ulkan). Bu yerda hajm bildiruvchi so'z ijtimoiy-ma'naviy ma'noni anglatib kelgan. Mittilar past qatlam, oddiy xalqni, ulkanlar hokimiyat, hukmronlikni bildirgan. She'rda Gulliver obrazi oddiy odam misolida ulkanlar uchun "zarra" yoki "o'lgan"day tuyilishi, mitti odamchalar uchun esa "buyuk", "ulkan" bo'lib tan olinishi shoirning asosiy g'oyasini ochib bergan. Mitti odamchalar kontekstda ijobiy baho oladi, ular orqali muallif xalqni nazarda tutadi. Demak, sarlavhaga olingan adabiy antroponim obraz ramziy ma'noda hokimlar inkor etgan, lekin xalq tomonidan ulug'langan insonni(haqiqatparvar inson, ijodkor, ziyoli, adolat tarafdori bo'lishi mumkin) ifoda etgan.

Mifologik antroponim sarlavhada mif yoki afsonadagi qahramon ismi sarlavhaga olinadi. "Ikar" (Oripov, 2019; 10) she'riga sarlavhaga olingan mifologik antroponim – "fazoga ilk bora qanot qoqqan", "o'zini beayov o'tda yoqqan" qadimgi yunon afsonaviy qahramoni hisoblanadi. Yunon afsonalarida u mashhur Afinalik ixtirochi Dedalning o'g'li sifatida eslanadi. Dedal Afinada sodir etgan jinoyati uchun o'lim jazosidan qochib Krit

oroliga boradi. U yerda Minos shohi uni va og'lini tutqun sifatida saqlaydi, chunki Dedal mohir rassom ham edi. Butun umr tutqunlikda yashashni istamagan Dedal esa qochish uchun kechalari o'z ixtirosi – qanotlar ustida ishlaydi. O'zi va og'li Ikar uchun ikki juft qush qanotini yasaydi. Qanotlar tayyor bo'lgach ota va bola parvoz qilishadi. Ota o'g'liga quyosh patlarni ushlab turgan mumni eritib yuborishi, shuning uchun unga yaqinlashmaslikni uqtiradi. Bola Ikar esa parvozning zavqidan yanada yuqoriroq uchadi. Quyoshning zarrin nurlari uni o'ziga rom etadi. Qiziqish uni Quyosh tomon yetaklaydi. Mumlar erib, bola Ikar bo'ronli dengizning eng qorong'u qa'riga qulaydi. Ota esa o'z ixtirosini butun umr la'natlab, o'g'lining firog'ida umr o'tkazadi. Lekin uning kashfiyoti insoniyatning kelajakdagi ixtirolariga turtki bo'ldi. Ijodkor Ikarning bitta emasligini ta'kidlaydi:

"Ikar bitta emas, yo'q, bitta emas,
Sanog'i yulduzlar misoli katta.
Kimki ilk savobga iz ochdimi, bas,
Shu yilning Ikari bo'lgay, albatta".

Sarlavhaosti izohida "Talabalarga" deyilgan. Bu kelajak yosh avlodga shoirning murojaatini anglatadi:

Sinmas qanot bilan – buyuklar misol
Ikar bo'la olgin o'zing ham axir!"

Ikar buyuk maqsad yo'lida fojia qurboni bo'lgan obraz. Shoir idealida yosh avlodni "sinmas qanot"li Ikar bo'lishini xohlaydi. Sarlavhaga olingan mifologik antroponim shoir aytmoqchi bo'lgan fikr uchun vosita bo'lib xizmat qilgan, sarlavhada intertekstuallik hosil qilgan.

Mifopoetik antroponim obraz – bu badiiy asarda inson nomi (antroponim) orqali mifologik, ramziy, poetik ma'nolarni o'zida aks ettirgan badiiy obrazdir. Bu kabi obrazlar oddiy qahramon nomini emas, balki afsona, arxetip bilan bog'liq ma'no yukini olib yuradi. O'zbek adabiyotida Alpomish (xalq qahramoni, kuch va sadoqat timsoli), Xizr (abadiy hayot va ilohiy yo'l ko'rsatuvchi). "Layli va Majnun" (Oripov, 2019; 351) she'rida sarlavhadagi antroponimlar Sharq mumtoz adabiyotida

mifopoetik obrazlar bo'lib, ular insoniy muhabbat va ilohiy haqiqat yo'lini o'zida ifoda etadilar. Ular tarixiy shaxs emas. Asrlar davomida ijodkorlar tomonidan qayta talqin qilinib arxetip darajasiga ko'tarilgan. Layli oshiqni Haqqa eltuvchi vosita. Majnun Haq ishqida o'zini yo'qotgan solik. She'rda Layli – istak, Majnun – iltijo timsoli sifatida talqin qilingan. Layli Ka'baga borganda Majnunsiz hayoti u uchun tiyra ekanligini aytadi. Bu orqali shoir Allohga bo'lgan ilohiy ishq Ka'badan ham yuqori turishi g'oyasini ifoda etmoqchi bo'ladi. Majnuning Ka'baga borib faqat Laylini so'rashi u uchun dunyoviy istaklardan ko'ra Haqqa bo'lgan ishq ustun turishini bildirgan.

Mifopoetik antroponim obrazlar shoirning diniy, ijtimoiy qarashlarini ifoda etish uchun vosita bo'lgan.

Xulosa

Ijodkorlar sarlavha sifatida antroponimlardan ham foydalanishadi. Sarlavhada tilga olingan shaxs kitobxon ongida avvalgi bilimlari bilan assotsiatsiya hosil qiladi va badiiy asar mazuni bilan aloqadorlik kelib chiqadi. Bu jarayonda intertekstuallik hodisasi yuz berib, ijodkor aytmoqchi bo'lgan fikr yaqqolroq anglashila boshlaydi. Natijada, shoir mahorati va sarlavhaning asar poetik yaxlitligidagi ahamiyatini yetarlicha yoritishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Oripov, A. (2019). *Saylanma*. Toshkent: "Tafakkur qanoti".
2. Oripov, A. (2019). *Tanlangan asarlar*. Toshkent: "Sharq".
3. Oripov, A. (2010). *Quyosh bekati*. Toshkent: Sharq.
4. Bozorova, M. (2025). Umumta'lim maktablarida diniy allyuziyalarni o'qitishning ilmiy-metodik asoslari. *"Inter education & global study"*.
5. Tilakova, N. (2021). Folklor va mumtoz asarlarda Xizr obrazining talqini. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*. Retrieved from <https://cyberleninka.ru/article/n/folklor-va-mumtoz-asarlarda-xizr-obrazining-talqini>
6. Nasimova, S. (2023). Antroponim sarlavhalar. *Conference on Applied and Practical Sciences*.
7. Баженова, А. (2006). *Интертекстуальность// Стилистический энциклопедический словарь русского языка – М.: Флинта; , 2006. - 104-108*. Москва: Наука. Retrieved from <https://studfile.net/preview/14297733>
8. Богданова, О. (2009). *Заглавие как семантико-композиционный элемент художественного текста: на материале английского языка тема*. Москва. Retrieved from <https://search.rsl.ru/en/record/01003466084>
9. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Ikar_\(mifologiya\)](https://uz.wikipedia.org/wiki/Ikar_(mifologiya))
10. <https://muslim.uz/uz/e/post/39132-xizr-alayhissalom>